



PAPER

## ZIKRILLA NE'MAT IJODIDA FRAZEOLOGIZMLAR

O'rayeva Darmonoy Saidahmedovna<sup>1,\*</sup> and Jo'rayeva Mexrigiyo Quvondiq qizi<sup>2</sup>

<sup>1</sup>BuxDU f.f.d, professor

<sup>2</sup>BuxDU tayanch doktoranti(PhD)

\*o'rayeva@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqolada shoir Zikrilla Ne'mat ijodida frazeologizmlarning qo'llanilishi haqida so'z boradi. Iboralar qo'llangan o'rinlar kontekstual tahlil qilinadi. Ularning she'rdagi g'oyani ochib berish va ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi o'rni xususida so'z boradi.

**Key words:** frazeologiya, frazeologizmlar, ibora, frazeologik lug'at, estetik jozibadorlik.

### Kirish

O'zbek tilining boyligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri frazeologizmlardir. Frazeologik birliklar xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda tilning obrazlilikini kuchaytiradi. Shu bois ular badiiy adabiyotda yozuvchi va shoirlar tomonidan keng qo'llanib, asarlarning badiiy-estetik qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub va badiiy ifoda bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri — Zikrilla Ne'matdir. Uning asarlarida xalqona iboralar, obrazli tasvir vositalari, ayniqsa frazeologizmlardan unumli foydalanish kuzatiladi. Bu esa yozuvchining til imkoniyatlaridan mohirona

foydalanganini hamda badiiy nutqni jonlantirishga intilganini ko'rsatadi.

Zikrilla Ne'mat ijodida qo'llangan frazeologik birliklar asar qahramonlarining xarakterini ochishda, voqea-hodisalarni ta'sirchan tasvirlashda hamda milliy ruhni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham yozuvchi asarlaridagi frazeologizmlarni o'rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolada Zikrilla Ne'mat ijodida uchraydigan frazeologik birliklar tahlil qilinib, ularning semantik xususiyatlari, badiiy vazifasi hamda asar matnidagi uslubiy ahamiyati yoritiladi.

Compiled on: March 18, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

## Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Frazeologizmlar tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib, ular ko'plab olimlar tomonidan turli jihatdan o'rganilgan. Xususan, Shavkat Rahmatullayev, Abduaziz Abdurahmonov hamda Abduvaliy Madvaliyev kabi tilshunos olimlarning ilmiy ishlari o'zbek frazeologiyasining nazariy asoslarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda frazeologik birliklarning tuzilishi, semantik xususiyatlari, uslubiy vazifalari va badiiy nutqdagi o'rni keng tahlil qilingan. O'zbek tilining frazeologik lug'ati ilk bor professor olim Shavkat Rahmatullayev tomonidan 1978-yilga tuzilib, nashr etilgan.

Shuningdek, badiiy matnda frazeologizmlarning qo'llanishi masalasi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham ko'plab ilmiy ishlarda ko'rib chiqilgan. Bu tadqiqotlar yozuvchilarning individual uslubini shakllantirishda frazeologik birliklarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda xalqona iboralar va turg'un birikmalar orqali obrazlarning xarakteri, muhit va milliy ruh yanada yorqin ifodalanadi. Shu jihatdan Zikrilla Ne'mat ijodidagi frazeologizmlarni o'rganish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolani yozishda bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, frazeologik birliklarni aniqlash va tahlil qilish jarayonida tavsifiy (deskriptiv) metod, ularning ma'no va vazifalarini ochishda semantik tahlil metodi, frazeologizmlarning badiiy matndagi qo'llanish xususiyatlarini aniqlashda esa kontekstual tahlil metodi qo'llanildi. Bundan tashqari, yozuvchi asarlarida uchraydigan frazeologik birliklarni tizimlashtirishda taqqoslash va umumlashtirish metodlari ham muhim o'rin tutdi.

Natijada, Zikrilla Ne'mat asarlarida qo'llangan frazeologizmlarning semantik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy matn yaratishdagi ahamiyatini ochib berish imkoniyati yuzaga keldi.

Tahlillar va natijalar. Har bir shoir ujudida uchraganidek Zikrilla Ne'mat ijodida ham iboralardan foydalanish holatlari ko'p uchraydi. Bunday birliklar shoir ifodalamoqchi bo'lgan fikrni so'zga nisbatan yaqqolroq tavsiflab beradi. Masalan oddiy so'zlashuv jarayonida hamiboralardan

foydalanish nutqni ta'sirli va go'zal qiladi: Bolalar sinfda shovqin qilyapti – Bolalar sifni boshiga ko'taryapti. Birinchi gapga nisbatan ikkinchisida holat yaqqolroq tavsiflanadi. Xuddi shunday shoir ham o'z ijodida bunday unsurlarni bisyor qo'llaydi. Shoir ijodida qo'llangan iboralarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) fe'l tasnifidagi iboralar (mohiyatan harakat va holatni ifodalash uchun)

b) sifat tasnifidagi iboralar (mohiyatan belgini ifodalash uchun).

Birinchi guruh iboralari fe'l korinishida bo'lib, lirik qahramonning ruhiy holatini va harakatlarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan "Sabrli bo'l" she'rida shunday yozadi:

Sabrli bo'l do'stim, agar birovlar

Nonu nasibangni tuya qilsalar. [2:26]

Tuya qilmoq – mazmunan tuyaning ustida ham it qopmoq iborasi bilan sinonim. Ya'ni "ishi biror to'siqqa uchrab doim yurishmaydi" degan ma'noni anglatadi.

[1:514] yuqoridagi misrada esa shoir lirik ikkinchi shaxsga nisbatan "birovlar ishingni yurishmasligiga sababchi bo'lsalar ham, rizqingga ko'z qo'ysalar ham sabrli bo'l" degan ma'noni oddiygina ibora bilan tushunarli qilib tavsiflaydi. "Ko'ngil qolmasin" she'rida ham xuddi shunday go'zal ma'nolar ifodalangan:

Qo'l yo oyoq sinsa tuzalgay bir kun,

Darz ketgan belni ham davolash mumkin.

Mehr ko'zgusiga darz ketib, lekin,

Beg'ubor dillarga hech gard qo'nmasin,

Ko'ngil sovimasin, ko'ngil qolmasin.

Ko'ngli sovimoq – avvalgi yaxshi munosabati yo'q bo'ldi.[1:284] Ko'ngil qolmoq iborasi ham mazmunan ko'ngli sovimoq iborasi bilan manodosh. Yuqoridagi misrada esa tanaga yetkazilgan har qanday jarohat bir kun kelib tuzalishi mumkun-u, ammo bir insondan ko'ngil qolsa, sovisa u avvalgi holatiga qaytmasligi tilimizdagi iboralar orqali chiroyli yoritib berilgan.

Shoir o'z ijodida tuyuq janriga ham murojaat qiladi. Jumladan bir tuyug'ida shunday ibora qo'llangan:

Nogahon samoda chaqnaydi chaqmoq,

Osonmas bu sirning mag'zini chaqmoq.

Yalt etib otilar go'yo o'qilon,

Qo'toslar podasin bo'lgandek chaqmoq.

Bilamizki, tuyuq janri sof turkey janr hisoblanib, u omonim – shakldosh so'zlar asosiga quriladi. Yuqoridagi tuyuqdagi “chaqmoq” so'zi uch misrada uch xil ma'noda keladi: 1- va 3- misralarda tabiat hodisasi; 2-misrada iboraning bir qismi, ya'ni “mag'zini chaqmoq”. Ikkinchi misradagi “mag'zini chaqmoq”- ( kimning?, nimaning?) ma'nosini tub-tubugacha o'rganib anglab yetmoq [1:310] degan ma'noni anglatadi. Tuyuqda shoir chaqmoq tabiat hodisasini tasvirlab beradi. Uning mohiyatini anglab yetish qanchalar mushkul ekanligini aytib o'tadi. Shu o'rinda uning birdan osmonda paydo bo'lishini oziga xos o'xshatish bilan tasvirlaydi: qo'toslar podasi hajm jihatidan juda katta va agar ularning orasidan bir o'qilon ko'ringuday bo'lsa, ular tumtaraqay qilib har yonga tarqaladi. Xuddi shunday osmonda chaqmoq chaqnasa bulutlar atrofga yoyilib, bir zum yorug'lik paydo bo'ladi.

Nahot gumonlarning oshig'i olchi,  
Qalbimni og'ular armonli tomchi.  
Umr otkinchidir, yillar aldamchi,  
Vasliga to'ymadim bir bora yolchib  
Yig'lamoq osonmi y omening qalbim,  
Ko'tarmoq osonmi ayriliq dardin?!

Oshig'i olchi – omadi kelib ishi olga bosdi.  
Bu misralarda esa gumonlarning lirik qahramon yuragini tobora zabt etib borayotgani, ayriliq azobi ibora orqali bayon qilingan.

Shoir ijodida uchraydigan ikkinchi tur iboralar, ya'ni sifat tasnifidagi belgi bildiruvchi iboralar ham talaygina. Ular ham she'r ta'sirchanligini oshirish singari badiiy maqsadga xizmat qiladi:

O'rtanur mashshoq qo'lida mungli tor,  
Kengga keng ekan bu dunyo, torga – tor.  
Ba'zilarga arzi dil aylay desang,  
Sabr aylab tinglay olmas, ko'ngli tor. [1:285]

Yuqoridagi tuyuqda ham uch o'rinda tor so'zi ishlatilgan. 1-misrada tor cholg'u asbobi, 2-misrada otlashish va sifatlashish hodisasi yuz bergan. Aslida ko'ngli keng odamga dunyo keng, ko'ngli tor odamga dunyo tor ekan tarzida bo'lishi kerak bo'lgan misra qisqarishlarga uchragan. 3-misrada esa ibora qo'llaniladi, ya'ni ko'ngli tor – xafa, dilgir ma'nolarida. Tuyuqda dunyo aslida insonning hayotga qarashlariga qarab uning ongida namoyon bo'lishi, ayrim insonlarga dardini aytish yengillashishga emas, aksincha uning xafa

kayfiyati orqali ko'ngilni yanada xira qilishi oddiy til bilan tushuntirib beriladi.

Xulosa. Iboralar til taraqqiyot qilgani sari boshqa til unsurlari bilan birgalikda taraqqiy qilib kelaveradi. Ular tilimizda yetakchi o'rin egallaydi. Nafaqat til sohasida, balki badiiy adabiyotda ham o'z orniga ega. Ularning badiiy asardagi o'rnini shoir Zikrilla Ne'mat ijodidagi ayrim she'rlar tahlili orqali tasvirlashga harakat qildik. Frazologizmlar nafaqat badiiy asar ta'sirchanligini oshiradi, balki muallifning ham ilmiy, ham falsafiy, ham badiiy ilmining qanchalik kuchli ekanligidan ham dalolat beradi.

## References

1. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. Gafur G'ulom. T.: 2022.
2. Согинч дунесию. Зикрилла Неъмат. А. Навоий. Т.: 2006.
3. [www.wikipedia.uzcom](http://www.wikipedia.uzcom) sayti ma'lumotlari.
4. [www.ziyo.uzcom](http://www.ziyo.uzcom) sayti ma'lumotlari.